



O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Abdullaev Axror Jaxbarovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti izlanuvchisi

Metyakubov Azamat Djumanazarovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15096066>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Mart 2025 yil

Ma'qullandi: 25-Mart 2025 yil

Nashr qilindi: 27-Mart 2025 yil

KEYWORDS

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy vosita, davlat imtiyozi, kichik tadbirkorlik, soliq imtiyozi, qo'shimcha qiymat solig'i.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada so'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy va tashkiliy choralar, davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilayotgan imtiyozlar hamda ularning natijalari tahlil qilingan.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash usullariga iqtisodiy dastaklar hamda davlat imtiyozlari kiradi. Iqtisodiy vosita, dastaklar orqali tartibga solish o'z ichiga soliq tizimi, davlat byudjeti, pul-kredit tizimlari hamda narx orqali tartibga solishni oladi. Davlat imtiyozlariga qisman yoki to'liq soliqdan ozod qilish, subsidiyalalar berish, kredit va bojxona imtiyozlari hamda boshqa imtiyozlar kiradi. Tashqi iqtisodiy usullarga tadbirkorlarga qo'shma korxonalar tuzish, o'z mahsulotlarini eksport qilishga ko'maklashish va boshqalar kiradi [1].

Davlatning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdan ko'zlagan maqsadi iqtisodiyotning mutanosib, barqaror rivojlanishi, aholining ish bilan bandligini ta'minlash asosida turmush darajasi va sifatini oshirishdir.

Davlat tomonidan sog'lom raqobat muhiti, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay ishbiarmonlik muhiti va keng erkinliklar yaratilishi, tadbirkorlar faoliyatiga davlat boshqaruvi va nazorat organlarining ortiqcha, noo'rin aralashuvini qisqartirish, ortiqcha ma'muriy-byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishi muhim ahamiyat kasb etadi [2].

O'zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish va tugatish tizimining osonlashtirilganligi hamda shaffofligi;

soliq hamda bojxona imtiyozlari;

imtiyozli kreditlash tizimi;

davlat-xususiy sharikligini rivojlantirish tizimi;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari erkinliklarini kafolatlash tizimi;

fond bozorini rivojlantirish tizimi;

sug'urtalash tizim;

xorijiy investitsiya jalb etish tizimi;
tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish tizimi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Turli mamlakatlarda tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlar va rivojlanish dinamikasi turli bo'lgani singari olimlarning ham tadbirkorlikni rivojlantirishga oid xulosa va takliflari ham turlichadir. Jumladan:

Kjell Gronhaug va Olav Kvetasteinlarning "Distributional involvement in international strategic business units" [3] nomli maqolasida har qanday biznes firmasining asosiy xususiyati uning bozorga bog'liqligi, omon qolish va gullab-yashnash uchun, etarli miqdordagi mijozlar o'z mahsulotlarini takliflarini kamida xarajatlarni qoplaydigan narxlarda sotib olishga tayyor bo'lishlari kerakligi aytiladi.

Mamlakatimizda esa Yo.Abdullaev, Sh.Yuldashev, A.O'lmasov, M.Sharifxo'jaev, A.Vahabov, Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'raev, A.A.Qulmatov, A.Vahobov, K.Kurpayanide, R.Xodjaev, E.Egamberdiev, A.G'ofurov, N.To'xliev, Q.Haqberdievlar tomonidan tadbirkorlik va uning nazariy-uslubiy asoslari kabi masalalar o'rganilgan hamda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni tadqiq qilish jarayonida induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiyalash, analiz hamda sintez singari ilmiy tadqiqot usullaridan, shuningdek qiyosiy tahlil usullaridan ham keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni [4] qabul qilindi. Farmonga muvofiq, tadbirkorlik sub'ektlari quyidagi mezonlar asosida toifalarga ajratiladi:

kichik tadbirkorlik sub'ektlari:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- mikrofirmalar – ta'sischilari (ishtirokchilari) jismoniy shaxslar bo'lgan hamda jami daromadi kalendar yil davomida 1 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari;
- kichik korxonalar – jami daromadi kalendar yil davomida 1 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha bo'lgan hamda ushbu kichik bandning uchinchi xatboshisidagi ta'sischilari (ishtirokchilari) yuridik shaxslar bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari;
- o'rta tadbirkorlik sub'ektlari – jami daromadi kalendar yil davomida 10 mlrd so'mdan 100 mlrd so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari;
- yirik tadbirkorlik sub'ektlari – jami daromadi kalendar yil davomida 100 mlrd so'm va undan yuqori bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari.

Tadbirkorlik sohasida 2017-2022 yillar davomida amalga oshirilayotgan islohotlarning btirinchisi ushbu farmon emas. So'nggi olti yilda mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 2 mingga yaqin Qonun, Farmon va Qaror qabul qilindi. Buning natijasida:

- tadbirkorlik sohasida talab etiladigan 114 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi;
- 33 turdagi litsenziya va ruxsatnoma o'rniga xabardor etish tartibi joriy etildi.
- soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;
- soliq tekshiruvlari turi 13 tadan 3 taga qisqartirildi;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga kamaytirildi;

- ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi;
- 3,5 ming turdagi tovarlar uchun import bojxona boji va 1,1 ming turdagi tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi;

- 3 mingdan ziyod turdagi tovarlar uchun import bojxona bojlari keskin kamaytirildi.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 54,2 foizni, fermer xo'jaliklari 18,1 foizni, xususiy korxonalar 15,3 foizni, oilaviy korxonalar 9,4 foizni, dehqon xo'jaliklari 1,9 foizni, boshqa shakldagi sub'ektlar ulushi 1,1 foizni tashkil etgan.

2017-yilda tadbirkorlik sub'ektlari soni 283 mingdan ortiqni tashkil etgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida so'nggi 6 yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bu ko'rsatkich 2022-yil yakuniga kelib, 523 mingtadan ortib ketdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 240 mingtaga yoki 1,8 marotaba ortgan.

1-jadval

2022 yilda hududlar kesimida tadbirkorlik sub'ektlari soni [6]

Hududlar	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni	Har 1000 kishiga to'g'ri keluvchi tadbirkorlar soni
Toshkent sh.	106	36,89
Toshkent	49	17,11
Samarqand	47	11,58
Farg'ona	46	11,97
Andijon	39	12,44
Qashqadaryo	36	10,61
Namangan	32	11,40
Buxoro	30	15,76
Surxandaryo	27	10,31
Xorazm	25	13,08
Jizzax	22	15,76
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22	12,17
Navoiy	22	21,97
Sirdaryo	15	18,12

O'zbekistonda 2022-yil yakunlari bo'yicha har 1000 kishiga to'g'ri keladigan tadbirkorlar soni o'rtacha 15 nafarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 36,8 nafarni, Navoiy viloyatida 21,9 nafarni, Sirdaryo viloyatida 18,1 nafarni, Surxondaryo viloyatida 10,3 nafarni, Qashqadaryo viloyatida 10,6 nafarni, Namangan viloyatida 11,4 nafarni tashkil etgan (1-jadval).

2022-yil yakuniga kelib, kichik va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 54,9 foizga, qurilishda 72,4 foizga va bandlik sohasida 74,4 foizga yetdi [5].

Xulosa

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish borasida amalga

oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar aholi daromadlarining ortishida, yashash darajasi va sifatining yaxshilanishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2016 yil 5 oktyabr// Xalq so'zi, 2016 yil 6 oktyabr.
2. Abulqosimov Hasan Pirnazarovich O'zbekistonda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. 2018. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiyl-tadbirkorlikni-davlat-tomonidan-llab-uvvatlash-mehanizmi> (data obrasheniya: 22.04.2023).
3. Gronhaug, Kjell&Kvetastein, Olav. (1993). Distributional involvement in international strategic business units// *International Business Review*// Volume 2, Issue 1, 1993, Pages 1-14
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
5. <http://www.uzdaily.uz/uz/post/7886>
6. Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
7. Matyakubov, A. M., & Matrizayeva, D. (2019). Sustainable economic growth with innovative management in Uzbekistan. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (76), 250-257.
8. Мэтякубов А. Д., Матризаева Д. Ю. Экономический анализ эффективности управления инвестициями в промышленности // *Бюллетень науки и практики*. 2020. Т. 6. №7. С. 251-256. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/56/27>
9. Матризаева Д. Ю., Мирджалилова Д. Ш. ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН ПО ПРИМЕНЕНИЮ СЕРВЕЙИНГА В СФЕРЕ УПРАВЛЕНИЯ НЕДВИЖИМОСТЬЮ // *Gospodarka i Innowacje*. – 2022. – Т. 22. – С. 371-376.
10. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. D. ADVANCED HOUSING FUND MANAGEMENT SYSTEM AS A TOOL FOR IMPROVING DELIVERY OF MUNICIPAL SERVICES ON CLIENT SATISFACTION // *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*. – 2020. – Т. 17. – №. 6. – С. 3177-3188.
11. Мэтякубов А. Д. Вопросы привлечения инвестиций в промышленности Республики Узбекистан (на примере производства строительных материалов) // *Бюллетень науки и практики*. 2018. Т. 4. №7. С. 379-387. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/metyokubov> (дата обращения 15.07.2018).
12. Nurimbetov R. I., Metyakubov A. J. Creating and developing special industrial zone in the region of lower reaches of Amu Darya River // *The Thirteenth International Conference on Economic Sciences* 24th November. – 2016. – С. 103-109.
13. Нуримбетов Р. И., Мэтякубов А. Д., Матризаева Д. Ю. Анализ эффективности управления инвестициями в промышленности строительных материалов. – 2020.
14. Мэтякубов А. Д., Болтаев У. Т. Тенденция экономического развития производства строительных материалов в Республике Узбекистан // *Бюллетень науки и практики*. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 243-249.